



MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI TARBIYALANUVCHILARNI HADISLAR BILAN TANISHTIRISH YO'LLARI

Xurramova Maxliyo Bahodir qizi

Alisher Navoiy nomidagi TOSHD O'TAU

2-kurs tayanch doktoranti

Email: maxliyoxurramova9599@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim bosqichida tarbiyalanuvchilar ma'naviyati, axloqi uchun hadislarining ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Hadislarning tarbiyalanuvchilar hayotidagi roli bir qancha o'rinli fikr va mulohazalar bilan qayd etilgan.

6-7 yoshli bolalarda men konsepsiyasi shakllangan bo'lib, harakatlariga javob bera oladi. Nima yaxshi, nima yomon ekanligini idrok eta oaldi.

Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari uchun uzundan uzun hadislarini berish ular uchun zerikarli, yod olish ham qiyin. Shu sababli ularga hajman kichik, yod olish qulay bo'lgan, yoshlariga mos bo'lgan hadislarini o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining yoshlari, qiziqishlariga mos hadislarini saralash va hadislarini o'rgatish, amalda tatbiq etishga qizitirish murakkab jarayon hisoblanadi. Tarbiyalanuvchilar hadislarini audio shaklida yoki tarbiyachilardan tinglashlari, hadis asosida shakllantirilgan videolarni ko'rishlari mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolaning umumiy muhim kompetensiyasi sifatida kommunikativ va ijtimoiy kompetensiya keltiriladi.

Kommunikativ kompetensiya–muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.

Ijtimoiy kompetensiya–hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tuta olish mahorati³⁴.

Tarbiyalanuvchilarni hadislar bilan tanishtirish ular qalbida ezgulik **niholini qadash, qanday inson barchaga manzur bo'lishi xususida suhbatlarni boshlash demakdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni hadislar**

³⁴ Bolibekov A. Rasulova Z. Yusupova H. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish yo'llari. Guliston 2020. –B.15.



bilan tanishtirish, o'rganganlarini amalda qo'llash uchun sodda hayotiy hikoyalar, vaziyatlarni keltirish ham kutilgan natijani beradi. Tarbiyalanuvchilar o'zi kabi bir bolaning axloq qoidalariga rioya qilmay noqulay vaziyatga tushib qolgani, yoki hadislar tufayli barchadan rahmat, rag'bat olganini tinglasalar, u kabi bo'lishni xohlaydilar.

MTT ning dars jarayonlarini kuzatilib, tahlil etildi. Dars jarayonlarida ertak, hikoya, topishmoq, maqol singari xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalaniladi. Biroq hadislar uchun alohida soatlar ajratilmagan. Dars jarayonlarida ham hadislardan foydalanilmaydi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi tarbiyalanuvchilarning rivojlanish ko'rsatkichlari mavjud.

Olti-yetti yoshli bolaning rivojlanish xaritasi

Kichik soha: Sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik
O'z tashqi ko'rinishiga e'tibor beradi
Jismoniy mashqlarni mustaqil bajaradi
Tabiat burchagi o'simliklar va jonzorlarni parvarishlaydi
Sog'lik uchun zararli bo'lgan harakatlarni tushunadi (chekish, ichkilikbozlik, olov b o'yinlar va hokazo)
MTTda, ko'chada va transportda o'zini tutish qoidalarini biladi
Yo'lovchi va velosiped haydovchilari uchun yo'l harakati qoidalarini biladi
Yong'in xizmati (101), militsiya (102), tez yordam (103), gaz xizmati (104) raqamlarini aytadi
Xavfli vaziyatlarda o'zini qanday tutishni biladi va tushuntiradi
Supermarket, shahar, qishloq va dalada yo'qolib qolganda o'zini qanday tutish kerakligini tushuntiradi
Ijtimoiy-hissiy rivojlanish
Kichik soha: "Men" konsepsiyasi
Mustaqillikka intiladi
O'z jinsi (gender), oilaviy mansubligi haqida ijobiy his-tuyg'ularni tan oladi va his qiladi
O'z millati, tili va madaniyatining asosiy elementlarini biladi
Yuklanayotgan vazifalarni qabul qiladi va faollikni ko'rsatadi
Rivojlanish sohasi / Kutilayotgan natija
O'z qarorlarini qabul qila olish layoqatini namoyon qiladi
Boshqalarga o'rnak bo'lishga intiladi
Kichik soha: Hissiyotlar va ularni boshqarish
O'z hissiyotlarini namoyon qilishni nazorat qiladi
Turli ijtimoiy vaziyatlarda emotsional javob qaytaradi



O'z hissiy holatini so'zlar bilan ifoda eta oladi
Boshqa odamlar yoki adabiy asarlar qahramonlari hissiyotlari haqida gapiradi
O'zini yomon his qilayotganlarga hamdard bo'ladi va ularni ovuntiradi
Kichik soha: Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot
Kattalar va tengdoshlari bilan osonlik bilan muloqotga kirishadi
Qiyin vaziyatlarda konstruktiv yechim izlaydi
Boshqalar xatti-harakatlari to'g'risida o'z taassurotlarini ifoda etadi
Boshqalar muvaffaqiyatiga quvonish qobiliyatini namoyon qiladi
Ziddiyatlarni hal qilishning bir nechta usulidan foydalanadi (tinchlantiradi, o'z o'yinchos beradi, muloyim so'zlar aytadi)
O'yinlar o'ylab topadi, syujetli-rolli o'yinlarda qatnashadi, turli ertaklarni dramalashtirish qatnashadi
Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari
Kichik soha: Til va nutq
Ona tilida gapiradi; gap bo'laklarini ravon, grammatik jihatdan to'g'ri ishlatadi
Gapdagi sinonim va antonimlarni topib, berilgan so'zlarga ularni moslaydi
Ko'p ma'noli so'zlarning turli ma'nolarini farqlaydi
Turli gaplarni tuzadi
Rivojlanish sohasi / Kutilayotgan natija
O'z tajribasidan kelib chiqib, rasmga qarab mustaqil tarzda tasviriyl hikoya tuza oladi
Turli janrdagi adabiy asarlarni ifodali hikoya qiladi
Guruhli muhokamalarda eshitib, suhbatga qo'shilib qatnashadi
Topishmoqlarni topadi, qofiyalar tuzadi
Gapirganda chet el so'zlarini ishlatadi; kichik she'rlar, qofiyalarni aytadi
Yil fasllari nomlarini biladi (bahor, yoz, kuz, qish)
Kichik soha: O'qish malakalari
Boshqa bolalarga kitob mazmunini yoddan aytib beradi
Muloqotda sodda va murakkab gaplardan foydalanadi
So'zlarni bo'g'inlarga bo'ladi
Bo'g'inli kartochkalar yordamida bo'g'inlardan so'zlar tuzadi
Tovush, so'z, bo'g'in, gap to'g'risida tushunchaga ega
Peshlavhadagi yozuvlar, kitoblar nomlari, rasmlar tagidagi yozuvlar va shu kabilarni o'qiydi
Bolalar adabiyoyoti janrlarini biladi (ertak, she'r, hikoyalar)
Mashhur bolalar yozuvchi va shoirlarini biladi
Kichik soha: Qo'l barmoqlari mayda motorikasi
To'g'ri chiziqlar, so'zlarni bosma harf-lar bilan va qisqa jummalarni yozadi



Daftar chiziqlarini aniqlay oladi
Rasmlarni to'g'ri joylashtiradi
Nuqta-chiziqli rasmlarni qo'lini uzmasdan birlashtiradi
Matoga naqshlar tikadi
Harakatning o'ziga va o'zidan yo'nalishlarini to'g'ri mo'ljallaydi
Turli materiallardan murakkab namunalar qirqadi
Rivojlanish sohasi / Kutilayotgan natija
Bilish jarayonining rivojlanishi
Kichik soha: Intellektual-bilish malakalari
Mustaqil tarzda atrof-muhit haqida axborot izlaydi
Kuzatuvlar asosida umumlashtiradi va xulosalar qiladi
Yil fasllari va voqealarni ketma-ketlikda aytib beradi
Rasmlar bo'yicha izchil xulosalar chiqaradi
O'z mamlakati va uning ramzlari to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi
O'z xalqining ba'zi milliy an'analari va urf-odatlarini biladi
Bolalar ensiklopediyasidan foydalana oladi
Predmetlarni tashqi va ichki belgilar (rangi, shakli, hajmi, vazni, harakatlan- ish tez vazifasiga qarab) bo'yicha tasniflaydi
Kichik soha: Elementar matematik malakalar
Raqamlar va sonlarning hayotdagi ahamiyatini tushunadi; geometrik figuralar va shakllarni bi
20 gacha bo'lgan sonlar doirasida ba'zi matematik amallarni bajaradi
10 gacha qo'shish va ayirishga doir sodda matematik masalalarni son va +, -, = belgilar foydalanib yechadi
Son tartibi haqida tushunchaga ega bo'ladi
Guruhlarning teng va tengsizligini tahlil qiladi (Qancha ko'p? Qancha kam?)
Predmetlarni hajmi, balandligi, qalinligi bo'yicha ketma-ket taxlaydi
Shartli belgi yordamida suyuq, sochiluvchan va qattiq jismlarni o'lchaydi
Kichik soha. Tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat
Qurilmani mustaqil tarzda balandligi, uzunligi va eni bo'yicha o'lchaydi
Rivojlanish sohasi / Kutilayotgan natija
O'z qiziqish va kuzatuvlari bilan bog'liq savollar beradi



O'z taxminlarini bildiradi, tushuntiradi va oldingi hamda hozirgi tajriba borasida umumlashm qiladi
Tadqiqotdagi hal qilinishi zarur bo'lgan muammoni ajratadi va qo'yadi
Atrof-muhitni yaxshilashda ishtirok etish muhimligini tushunadi (m-n, axlatni to'plash, saralash, daraxtlar va gullar ekish, elektr toki, suv va qog'ozni tejash)
Turli resurslardan foydalangan holda, o'z kuzatuvlarini ifodalaydi va tasdiqlaydi
Ijodiy rivojlanish
Kichik soha: Dunyoni badiiy tasavvur etish
She'rlarni ifodali o'qib berishga qodir
Tanish asarlarni mustaqil ravishda hikoya qilib beradi, ularni sahnalashtirishda ishtirok etadi
She'riy va nasriy badiiy asarlarga hissiy munosabat bildiradi
Musika asarining kayfiyati va xarakterini aniqlashga qodir bo'ladi
Bolalar yozuvchi, shoir, bastakorlarini biladi
Tasviriy san'at turlarini farqlaydi
Kichik soha: Badiiy-ijodiy qobiliyatlar
Turli predmetlardan kompozitsiyalar yaratadi
Yakka va jamoaviy tarzda qo'shiqlar kuylashi mumkin
Harakatlarga go'zallik baxsh etgan holda raqsning o'z qarashidagi ko'rinishini o'ylab topish qodir bo'ladi
Musika asboblari yakka (solo) holda yoki orkestr tarkibida chalishi mumkin
O'z g'oyasini yaratadi va tatbiq etadi
Rivojlanish sohasi / Kutilayotgan natija
Maqsadga erishish uchun o'rni bosuvchi sifatida turli predmetlardan foydalanadi
Spektakllar qo'yishda o'z roli bilan qatnashadi
Insonning dunyoni o'zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi
Narsalardan ikkilamchi foydalanish borasida g'oyalar taklif etishi mumkin

Tarbiyaning asosiy o'chog'i, bola nusxa oladigan maskan oiladir. Oila va maktabgacha ta'lim muassasasi, oila va maktab hamjihatlikda faoliyat yuritisa, bola shaxsiyati axloqan yetuk tarzda shakllanadi. Aksincha bo'lsa, ya'ni bola MTTda, maktabda o'rgangan, o'zlashtirganlarini oilada amalda mustahkamlamasa, ikki tafovut orasiga tushib qoladi. Demak, biz bugungi kun yoshlariga maktabgacha ta'lim muassasasida va umumta'lim maktabida yosh toifasi va axloq-odob qoidalariga munosib hadislarni o'rgata olsak, kelajak otalarini, onalarini tarbiyalagan, voyaga yetkazgan bo'lamiz.

Shaxsiyatning 80 % qismi besh yoshgacha shakllanib bo'lishi e'tiborga



olinsa, tarbiyalanuvchilarni maktabgacha ta'lim muassasasida hadislar bilan tanishtirish, hadislarini o'zlashtirish to'g'risidagi qarashlarimizga e'tirozga o'rin qolmaaydi.

Bola dunyoga kelganidan boshlab, badan tarbiyasi boshlanadi. Poklik ham shu davrdan boshlab o'rgatila boshlaydi. Aqliy tarbiya sekinlik bilan sayqallanib boradi. Bir yarim, ikki yoshdan boshlab, muloqotga kirisha boshlagan go'dak atrof-muhitga qiziqib, savollar bera boshlaydi. Qiziqishlar natijasida yuzaga chiqqan savollarga ota-ona tushunarli va to'liq javob berishlari lozim. Axloqiy tarbiya esa barcha davrlarda dolzarb bo'lgan. Ma'naviyatli shaxs yurt ravnaqini belgilaydi. Ilm va axloq egizakdir, ikkalasi bir-birini taqozo etadi.

Rasululloh siyratlarida, bolalarga munosabatlarida chaqaloqlarga, yosh bolalarga go'zal o'rnaklar mavjud.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Xurmo terimi vaqtida Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga xurmoo keltirilar edi. Bunisi ham o'z xurmosini, unisi ham o'z xurmosiniolib kelardi. Hatto u zotning huzurlarida xurmodan uyum hosil bo'lar edi. (Bir kuni) Hasan va Husayn roziyallohu anhumo o'sha xurmolarni o'ynay boshlashdi. Keyin birlari bitta xurmoni olib, og'ziga soldi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam uni ko'rib, xurmoni uning og'zidan chiqarib tashladilar-da: “Muhammadning –sollallohu alayhi vasallam-oilasi sadaqa yemasligini bilmasmidig?!” dedilar³⁵”

Hadislarning yoshlar ma'naviyatiga, ichki olamiga, axloqiga ta'siri deyilsa, ko'pchilikning ongida salomlashish haqidagi hadislar keladi. Bunga sabab balki juda ko'p yillar davomida kam miqdorda hadislarning o'qitilishidir. Tarbiyalanuvchilarning ma'naviyatiga, fazilatleri shakllanishiga, shaxsiyati, aqliy salohiyati va axloqiy qiyofasiga ta'sirini ba'zi hadislar misolida tahlil qilamiz.

Pok qalbli, insonlar-u hayvonlarga mehribon, murg'ak yuragida yaxshilik ufurgan tarbiyalanuvchilarga jonzotlarga mehribon bo'lish haqidagi hadisni tinglasa, qanday foydali. Amalda qo'llash esa hadislardan foydalanishda kutilgan natijani beradi.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Bir kishi tashnalikdan nam tuproqni yalayotgan itni ko'rib qoldi. Shunda u odam mahsisiga suv olib, unga bera boshladi, nihoyat uni qondirdi. Shundan Alloh undan rozi bo'ldi va jannatga kiritdi”, dedilar³⁶”.

³⁵ Sahihul-Buxoriy–2. Hilol-nashr Toshkent 2025. –B.383.

³⁶ Sahihul-Buxoriy–1. Hilol-nashr Toshkent 2025. –B.242.



Tanganing ikki tomoni mavjud bo'lganidek, bolajonlar orasida ham qush-u hayvonlarga "kutilmagan hujumlar" uyushtirib turadiganlari ham topiladi. Shu sababli yuqoridagi hadis MTT yoshidagi tarbiyalanuvchilar uchun zarur va foydalidir.

Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida mushuklarni qiynab, o'ldirgan ikki shaxs haqidagi holat kishini hayratga soladi."Kadrlarda bino ichida erkak mushukni tepib, uni bosib qolishga harakat qilgani va jarohat yetkazgani ko'rinadi. Jonivor o'zini olib qochishga uringan, biroq lavhalarning birida harakatsiz bo'lib qolganini ko'rish mumkin. Shundan so'ng erkak uni ko'tarib, xonadan chiqib ketgan³⁷".

Yana shu kabi holatlar tarmoqlardan o'rin olgan. Ushbu vahshiyliklar 2025-yil dekabrda mehmonxonada sodir bo'lgan.

"Keyinroq kadrda qo'lida qurol bo'lgan boshqa bir erkak paydo bo'ladi. U ham ikkita mushukka nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lib, so'ngra miltiqni o'qalaydi va ular tomon bir necha bor o'q uzadi. Boshqa bir yozuvda esa arqonga osib qo'yilgan jonsiz mushukni ko'rish mumkin³⁸".

Ushbu vahshiy voqea mualliflaridan biri 1993-yilda tug'ilgan 33 yoshli fuqaro, ikkinchisi esa 1996-yilda tug'ilgan 32 yoshli fuqarodir. Hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lgan. Bu kabi ayanchli voqealar hayvonlar-u jonzotlarga azob bergan kishi u dunyoda javob berishi haqida hadis tinglagan, mazmunini anglagan inson qo'lidan kelmaydi, albatta.

Salom berishni bolalarda odatga aylantirishda quyidagi hadis ham e'tiborga molikdir: "Abdulloh ibn Amr roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi: "Bir kishi Nabiy sollallohu alayhi vasallamdan: "Qaysi islom (amali) yaxshiroq?" deb so'radi. U zot: "Taom berishing hamda tanigan-tanimaganingga salom berishing", dedilar³⁹". Shu bilan birga taom berish ham go'zal islom amallaridan ekanligini anglaymiz.

Inson fitratida bir illat mavjud. Bu qizg'anchilik bo'lib, kishi o'z narsasini, Alloh bergan ne'matni o'zgalar bilan bo'lishishni xohlamaydi. Ayniqsa, bu yosh tarbiyalanuvchilarda ko'p ko'zga tashlanadi. "Anas roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Nabiy sollallohu alayhi vasallam: "Hech biringiz o'zi uchun yaxshi ko'rgan narsani birodariga ham ravo ko'rmagunicha mo'min bo'la olmaydi", dedilar⁴⁰" hadisi esa o'z yaxshi ko'rgan narsasini o'zgalar bilan bo'lishish ham ulkan islom ne'mati, darajasi ekanligini anglab yetadi.

³⁷ Gazeta.uz.

³⁸ Gazeta.uz.

³⁹ Sahihul-Buxoriy-1. Hilol-nashr Toshkent 2025. -B.2.

⁴⁰ Sahihul-Buxoriy-1. Hilol-nashr Toshkent 2025. -B. 133.



Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim yoshidagi tarbiyalanuvchilarni hadislar bilan tanishtirishda soda va tushunarli sharhlash, hayotiy misollar bilan qiyoslash kutilgan natijani beradi. Ong-u shuuri poklikdan iborat, harakatlari beg'ubor bo'lgan tarbiyalanuvchilar bugungi globallashib borayotgan dunyoda qadimiy tarixga ega hadislar bilan tarbiyalansalar, vatan kelajagi, rivojlanishi uchun o'z hissalarini qo'shadilar.

Rezyume. Maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi tarbiyalanuvchilarni hadislar bilan tanishtirish yo'llari haqida fikr yuritilgan. Hadislarning tarbiyalanuvchilar ma'naviyatidagi ahamiyati aks ettirilgan.

Резюме. В статье рассматриваются пути ознакомления воспитанников дошкольного возраста с хадисами. Отражено значение хадисов в духовно-нравственном воспитании и формировании мировоззрения детей.

Resume. The article discusses ways of introducing preschool children to hadiths. It highlights the importance of hadiths in the spiritual and moral development of young learners.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abu Iso Muhammad at-Termiziy. Sunani Termiziy. Hadislar to'plami. VI jildlik. Tarjimon: Mirzo Kenjabek. 1-jild. –T.: Adolat. 1999.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. –T.: O'qituvchi. 1992.
3. Bolibekov Alisher Abdusalomovich. Adabiy ta'lim orqali o'quvchilar axloqiy fazilatlarini takomillashtirishda hadislardan foydalanish yo'llari: ped.fan. nomz. ... diss.–Toshkent. 2008.
4. Imom al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. (Adab durdonalari). T.: O'zbekiston 1990.
5. Imom al-Buxoriy. Sahihul Buxoriy. Oltin Silsila. 1. T.: HILOL NASHR. 2025.
6. Imom al-Buxoriy. Sahihul Buxoriy. Oltin Silsila. 2. T.: HILOL NASHR. 2025.
7. Mahkamov U. I. Yuqori sinf o'quvchilrida axloqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari.: Ped. Fan. dok. ... diss. –T.: 1998. –286.b.
8. Mansurov M, U. Jo'rayev, M. Lafasov. Hadis ilmi saboqlari. –T.: O'qituvchi. 1990. –64.b.
9. Nosirov K. J. IX-X asrlarda O'rta Osiyo mutafakkirlarining axloqiy tarbiya haqidagi g'oyalari.: (al-Buxoriy va al-Farobiy asarlari misolida). Ped. Fan. nom. ... diss. –T.: 2000.–135.b.
10. Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o'quvchi shaxsini axloqiy shakllantirish.: Ped. Fan. dokdiss. –T.: 305.b.
- Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini



- shakllantirishning pedagogik asoslari.: Ped. Fan. dokdiss. –T.: 1993. 364.b.
11. Pazilova Meruyert Yermekbayevna. O‘quvchi ma’naviyatini hadislar vositasida shakllantirishning pedagogik asoslari: ped.fan. nomz. ... diss.–Toshkent. 2004.
12. Musayeva Nodira Mahmudovna. Insonning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda hadislarining roli: ped. fan.nomz. ... diss. –2001.
13. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik. «Adabiyot» 5-sinf. Toshkent. 2024.
14. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik. «Adabiyot» 9-sinf. Toshkent. 2024.
15. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. T.: Hilol nashr 1990.1-j.
16. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. T.: Hilol nashr 1990.2-j.